



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON HISOB-KITOB QILISH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

To'rayeva Shaxrizoda Shavkat qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti akademik litseyi

ORCID: 0009-0005-6129-9311

shaxrizodaturayeva@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham plastik kartochkalar texnologiyasi jadal rivojlanib bormoqda. Plastik kartochkalardan foydalanishni takomillashtirish va naqd pulsiz hisob-kitob tizimini keng joriy etish maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Kalit so'zlar: elektron hukumat, axborot-kommunikatsiya, SMS-banking, internet-banking, mobil-banking, tijorat banklari.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННЫХ РАСЧЕТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тураева Шахризода Шавкат кизи

Академический лицей Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми

Аннотация. В настоящее время технология пластиковых карт стремительно развивается в развивающихся странах, в том числе и в Узбекистане. Принят ряд нормативных правовых актов, направленных на совершенствование использования пластиковых карт и повсеместное внедрение безналичной системы расчетов.

Ключевые слова: электронное правительство, информация и связь, SMS-банкинг, интернет-банкинг, мобильный банкинг, коммерческие банки.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ELECTRONIC BILLING SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Toraeva Shahrizoda Shavkat kizi

Academic Lyceum of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract. Currently, plastic card technology is rapidly developing in developing countries, including Uzbekistan. A number of regulatory and legal acts have been adopted to improve the use of plastic cards and widely introduce a cashless payment system.

Keywords: electronic government, information-communication, SMS-banking, internet-banking, mobile-banking, commercial banks.

Kirish.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatida plastik kartochkalar texnologiyasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu texnologiya nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki xalqaro moliya tizimining integratsiyasini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston ham ushbu jarayonga qo'shilib, plastik kartochkalar va to'lov tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Davlatimizning iqtisodiy siyosatida tahlil etilgan holatda, plastik kartochkalar tizimi nafaqat moliya sektori, balki barcha sohalarda, jumladan, savdo va xizmatlar sohasida ham sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2002 yilda qabul qilingan farmonlar va qarorlar asosida plastik kartochkalar bilan hisob-kitob qilish tizimi rivojlantirilib, banklar va foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu tizim nafaqat yurtimiz iqtisodiyotining muhim elementiga aylandi, balki xalqaro tajriba bilan ham uyg'unlashib, yangi texnologiyalar va xizmatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, plastik kartochkalar tizimining rivojlanishi mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarori (Qaror, 2004), ushbu qaror plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar sohasida raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish va naqd pul operatsiyalarini kamaytirishga qaratilgan, Mahmudov o'z maqolalarida, elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u tizimning shaffofligi, xavfsizligi va tezkorligi orqali moliyaviy barqarorlikka erishishga yordam beradi. Shu bois, markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimini yanada rivojlantirish va keng qo'llash hozirgi davr talabi ekanligini takidlagan.

Jahon banki mutaxassislaridan yana biri O. Margaret to'lov tizimiga quyidagicha ta'rif bergan: «To'lov tizimi – bu pul mablag'larini o'tkazish mexanizmidir». To'lov tizimiga yana bir ta'rif rossiyalik iqtisodchi M. P. Beryozina tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra «mamlakatning todov tizimi - bu iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi qarz majburiyatlarining bajarilishini ta'minlovchi, qonuniy boshqariluvchi elementlar yig'indisi». V. G. Solovyevning ta'kidlashicha: «To'lov tizimi — bu hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlovchi qoida va mablag'lar komp- leksidir». Ushbu ta'rifda ham asosiy urg'u hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari hamda pul mablag'lariga berilmoqda (Navro'zova, Ortiqov, 2014).

Jumanazarovning (2013) takidlashicha, O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi istiqbolli yo'nalish bo'lsa-da, u bir qator muammolar va cheklovlarga ham duch kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, ilg'or tajribalar va samarali regulyativ choralarning uyg'unlashuvi orqali elektron to'lovlar tizimi yanada kengayishi va ishonchligi oshishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish va umumiy moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. "To'lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 1986, 2009-yil 27-iyul) Nizom (2009). Ushbu nizom banklar, to'lov tizimlari operatorlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun to'lov terminallarini joriy etish va undan foydalanish tartibini aniq belgilab beradi, bu esa moliyaviy operatsiyalarni yanada shaffof, xavfsiz va samarali amalga oshirishga yordam beradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-sonli qarori, Ushbu qaror bank plastik kartochkalaridan foydalanish asosida hisob-kitob tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy

xizmatlarni takomillashtirish va naqd pul operatsiyalarini kamaytirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori (2010), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli qarori, Ushbu qaror axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda yanada keng joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2016-2018 yillarga mo'ljallangan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish konsepsiyasi hamda Zamonaviy bank-moliya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribaga asoslangan maqolalar va manbalar o'rganilgan (Qaror, 2011).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot plastik kartochkalar texnologiyasining rivojlanishi va mamlakatimizdagi to'lov tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi chora-tadbirlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatida plastik kartochkalar texnologiyasi shiddat bilan rivojlanmoqda. Plastik kartochkalar texnologiyasining xalqaro tajribasiga tayangan holda yurtimizda ham to'lov tizimini takomillashtirish, ya'ni plastik kartochkalardan foydalanishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun yetarli shart-sharoit yaratilib, yildan-yilga bank-emitentlari soni va ulardan foydalanuvchilar safi ortib bormoqda. Prezidentimizning 2002-yil 30-martdagi "Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3047-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-avgustdagi "Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-sonli qarori bilan plastik kartochkalar vositasida hisob-kitob qilish bo'yicha bir qator imtiyozlar berildi. Toshkent shahrida tajriba tarzida plastik kartochkalardan foydalanish yo'li bilan ish haqi to'lashga bosqichma-bosqich o'tish ishlari boshlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qaroriga muvofiq, banklararo processing markazi negizida savdo va xizmatlar sohasi tashkiloti tashkil qilindi. Bu, plastik kartochka egasiga qaysi bankda xizmat ko'rsatilishidan qat'i nazar, barcha savdo shoxobchalarida bank operatsiyalarini yagona rejimda amalga oshirish imkonini beruvchi Yagona umumrespublika processing markazidir. Markaz 2004-yilning oktabr oyida faoliyat boshladi.

Eng muhimi, Prezidentimiz hamda hukumatimizning naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirishga doir qator qarorlariga muvofiq, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini to'lov terminallari bilan jihozlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pul hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha "To'lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 1986, 2009-yil 27-iyul) Nizom ishlab chiqildi. Shu va boshqa bir qator meyoriy hujjatlarga muvofiq, ushbu sohani mukammal tartibga soluvchi huquqiy baza yaratildi.

Bugungi kunda plastik kartochkalar naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish jamiyat hayotidagi muhim moliyaviy vositaga aylanib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, Prezidentimizning 2010-yil 19-apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-sonli hamda 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro

reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarorlari dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

Yuqoridagi ikki qarorda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Markaziy bank, O'zbekiston banklari Assosiasiyasi va Yagona umumrespublika processing markazi (YAUPM) tomonidan qator yangiliklar yaratildi. Xususan, "Uzkart" banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lmish tijorat banklari bilan birgalikda "on-line" rejimida ishlaydigan "Smart-Vista" EMV texnologik platformasi joriy etildi. YAUPM tomonidan server va kommunikasiya jihozlari, tizim bo'yicha dasturiy ta'minotlar o'rnatilgach, platforma to'liq ishga tushirildi. Server va terminallar uchun amaliy dasturlar joriy qilindi. Hukumatimizning alohida qarorlari asosida respublikamizda plastik kartochkalar infratuzilmasi kengayishi ta'minlanayapti. Aholining bankka bo'lgan ishonchi ortishi hisobiga so'nggi besh yil mobaynida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari 2 barobardan ziyod, to'lov terminallari soni 2,1 barobar, o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 4,8 barobar ortdi. Shuningdek, jismoniy shaxslarning bank plastik kartochkalari orqali milliy valyutada amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi 3 barobardan ziyodga oshdi.

Mamlakatimizda 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan onlayn rejimida ishlaydigan 8 426 280 dona bank kartochkasi muomalaga chiqarildi. Keyingi yillarda mamlakatimiz tijorat banklari chakana operatsiyalarni rivojlantirish orqali xizmat turlarini ko'paytirish va faoliyatni diversifikasiyalashga harakat qilmoqda. Ma'lumki, yurtimizda 1998-yildan e'tiboran, yangi "Bank-Mijoz" dasturi amaliyotga tatbiq qilingan. "Hisob-kitoblarni "Bank-mijoz" dasturiy majmuasi orqali amalga oshirish to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 497, 1998-yil 8-oktabr) Nizom asosida yangi tizim faoliyati tartibga solinadigan bo'ldi. Bu esa milliy to'lov tizimini yangi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda takomillashtirishga imkon yaratmoqda. Zero, bugun bank mijozlari o'z ish joylaridan turib, kompyuter va elektron aloqa tizimi orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniga egadirlar: mijozlar bankomat, mobil telefonlar va Internet orqali hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarishlari mumkin. Xususan, amalda qo'llanayotgan "bank-mijoz", "internet-banking", "mobil-banking" va "SMS-banking" kabi xizmat turlari quyidagi ustunliklarga ega:

–Xizmat ko'rsatish sifatining oshishi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi orqali vaqt cheklovi olib tashlanadi. Ya'ni mijoz o'z bank hisobvarag'ini haftasiga yetti kun, kuniga yigirma to'rt soat boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, mijozning geografik holatiga ham e'tibor berilmaydi.

–Mijoz jahonning istalgan nuqtasidan turib, o'z tranzaksiyalarini amalga oshirishi mumkin. Buning uchun shaxsiy kompyuter, Internet global tarmog'i yoki mobil telefon bo'lsa kifoya.

–Yangi bank mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish orqali sog'lom raqobat muhitida bankning raqobatbardoshlik ko'rsatkichi oshadi.

–Filiallarni boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni keskin qisqartirish evaziga bank operatsiyalari tannarxi kamayadi.

–Bank mijozlariga sifatli xizmat ko'rsatilgani bois ular safi kengayishi hisobiga mablag'ning bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirishga erishiladi.

Monitoring natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda 2011-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimi ("bank-mijoz", "internet banking", "mobil-banking", "sms-banking" va boshqalar)-dan jami foydalanuvchilar soni 24 545 ga yetgan. Shundan "internet-banking" va "bank-mijoz" dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 14 241 tani tashkil etdi. "Mobil-banking" va "sms-banking" xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 10 304 ta ekanligi qayd etildi. 2016-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchilar soni 1 061 022 tani tashkil etdi. Shundan "internet-banking" va "bank-mijoz" dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 81 492 tadir. Bu respublikamizda 2012-yilning 1-yanvar holatiga (1 061 022) 2011-yil 1-yanvar holatiga (24 545 taga nisbatan) ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan

boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 43 barobardan oshganligini anglatadi. Xususan, o'tgan besh yil mobaynida "internet-banking" va "bank-mijoz" dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 5,7 barobarga oshgan. "Mobil-banking" va "sms-banking" xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 95 barobarga oshdi.

Ma'lumki, hozirgi kunda jahon bank-moliya tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Natijada, banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezilmoqda. Shu bois hukumatimiz tomonidan bank tizimida izchil va maqsadli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli Qarori mohiyatiga to'xtalsak. Ushbu hujjatga muvofiq, kommunal xizmatlar uchun va boshqa to'lovlar elektron tarzda amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha respublika kommunikasiya tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikasiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli Qarori bilan Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi respublika "Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari tarkibiga kiritildi. Ahamiyatli tomoni shundaki, kliring tizimida elektron to'lovlar dam olish kunlarisiz kechayu kunduz amalga oshirilishi ta'minlandi.

Kliring tizimi banklar uchun chakana to'lovlarni amalga oshirishning markazlashgan tizimini yaratadi. Jismoniy shaxslar hamda tadbirkorlik subyektlarining soliq va boshqa majburiy to'lovlari, shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni operativ ravishda real vaqt rejimida amalga oshirish uchun qulay sharoit tug'ildi. Bugungi kunda Markaziy bankning kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi, "O'zbekenergo" AJ va "O'ztransgaz" AK billing tizimlari integrasiya qilinganligi fikrimiz tasdig'idir. Endilikda soliq va majburiy to'lovlar, elektr energiyasi hamda gaz iste'moli xizmatlari uchun to'lovlar real vaqt rejimida faol amalga oshirilmoqda. Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali 2015-yilda amalga oshirilgan to'lovlar 603,4 mlrd. so'mdan ziyodni tashkil qildi. Xususan, amalga oshirilgan to'lovlar "O'zbekenergo" bo'yicha 235,6 mlrd. so'm (39,05%), "O'ztransgaz" bo'yicha 227,2 mlrd. so'm (37,65%), soliqlar bo'yicha 134,5 mlrd. so'm (22,29%)dir. Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

- zamonaviy bank axborot-kommunikasiya infratuzilmasining to'laqonli shakllanishi;
- to'lovlarni amalga oshirishning uzluksizligi va shaffofligini ta'minlash;
- tijorat banklari o'rtasidagi vakillik hisobvaraqlari doirasida hisob-kitoblarni optimallashtirish va jadallashtirish;
- mablag' to'lovchi va mablag' oluvchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarning real vaqt rejimida amalga oshirilishi;
- tijorat banklari uchun tizim xarajatlarining kamayishi. Shuningdek, vakillik hisobvaraqlaridagi bo'sh pul mablag'laridan oqilona foydalanish;
- har bir bosqichda ma'lumotlarning ishonchliligini nazorat va monitoring qilish;
- masofadan turib hisobvaraqni boshqarish orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa real vaqt rejimida pul mablag'larini ko'chirish;
- real vaqt rejimida jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul o'tkazmalari;
- jismoniy shaxslar bank plastik kartochoyklari va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larni qonunchilik doirasida masofadan turib jamg'arma va muddatli omonatlarga yo'naltirish;
- jismoniy shaxslar bank plastik kartochoyklari va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larni kredit bo'yicha to'lovlarni so'ndirishga yo'naltirish;
- internet tarmog'i orqali elektron tijorat doirasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni bank plastik kartochoyklari yordamida bajarish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot joriy etish;

– elektron tijorat doirasida tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni boshqa depozit hisobvaraqlari orqali real vaqt rejimida amalga oshirish.

Ayniqsa, bankdan tashqari pul mablag'lari aylanmasini qisqartirishga zamin yaratgan holda naqd pul massasi (M0) ni keskin qisqartirish imkoni tug'ildi. Bank xizmatlari nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlar, balki aholining keng qatlamiga kirib borishi hisobiga respublika monetizasiya darajasi kengayishi ta'minlanmoqda.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini samarali ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. 2016-2018 yillarga mo'ljallangan ushbu Konsepsiyada zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirish nazarda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz iqtisodiyotining qon tomiri hisoblanmish banklar faoliyatini rivojlantirish bugunning talabidir. Negaki, tizimda axborot kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanib, naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmini joriy etish va xizmatlar sifati, to'lov qobiliyati, intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarish orqali iqtisodiy yuksalishga erishish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda plastik kartochkalar texnologiyasi jadal rivojlanmoqda. Hukumat va Prezident qarorlari asosida to'lov tizimini takomillashtirish, banklar o'rtasida yagona processing markazi yaratish va naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. "Uzkart" va "Smart-Vista" kabi zamonaviy to'lov tizimlari joriy etilgan, onlayn banking, "mobil-banking" va "SMS-banking" xizmatlari keng tarqalmoqda. Shu bilan birga, kliring tizimi orqali kommunal to'lovlar va boshqa majburiy to'lovlar real vaqtda amalga oshirilmoqda. Bank tizimidagi islohotlar hisob-kitob jarayonlarini tezlashtirish, shaffoflikni oshirish va naqd pul muomalasini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar /Jumepamyra/Reference:

Jumanazarov M. (2013) *O'zbekistonda elektron to'lovlar tizimi rivojlanishi // Bozor, pul va kredit. – T.: № 5, b.10 – 13.*

Mahmudov U. *Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi – davr talabi // Bozor, pul va kredit. – T.: 2014, №7, b. 4 – 9.*

Navro'zova K.N., Ortiqov O.A. (2014) *"Naqd pulsiz hisob- kitoblar va to'lov tizimi" o'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent. –№ 34-14.*

Nizom (2009) *"To'lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 1986, 2009-yil 27-iyul).*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli qarori.

Qaror (2004) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarori.

Qaror (2010) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-sonli qarori.

Qaror (2011) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori.